

## DIQQATNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: MAKTABGACHA YOSH DAVRIGA OID YONDASHUVLAR

*Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi*

*Alfraganus Universiteti, Pedagogika fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari )  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat jarayonini shakllantirish hamda diqqat jarayonining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Shuningdek psixologik, biologik hamda ijtimoiy omillar nuqtayi nazaridan turli yondashuvlar atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Diqqat, Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat shakllanishi, ijtimoiy omillar, psixologik omillar, biologik omillar, ijobiy emotsiyalar, salbiy emotsiyalar, o'yin faoliyati, rus psixologi A.N.Leontev, D.B.Elkonin, O'zbekiston psixologi X.Yo'ldoshev,

Bugungi kunda psixologiya fanida shaxs rivojlanishini har tomonlama o'rganish hamda bu jarayonda unga yordam berish yangidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shaxs rivojlanishida esa muhim psixik jarayonlardan biri bu shaxsning diqqat jarayonini qay darajada yaxshi rivojlanganligi muhim hisoblanadi. Diqqat inson psixikasining muhim jihatlaridan biri bo'lib, atrof-muhitdagi axborotlarni ongli qabul qilish va qayta ishlash jarayonidir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri — diqqatning shakllanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning diqqatini shakllantirishda nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy muhit ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

***Diqqat — bu ong faoliyatining muayyan ob'yektga yo'naltirilganligi va barqarorligini ifodalovchi psixik jarayon hisoblanadi.***

**Maktabgacha yosh** — bu bolaning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda asosiy psixik jarayonlarning dastlabki shakllanishi sodir bo'ladi. Shu jarayonlardan biri diqqat bolaning har qanday o'quv, o'yin, muloqot faoliyatida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

*Maktabgacha yoshda diqqat quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:*

1. 3–4 yosh: Bu yoshdagi bolalarda diqqat hajmi kichikligi sabab, tez chalg'iydi, e'tibor qaratish sust bo'ladi, asosan shuning uchun diqqat qiziqish asosida shakllanadi.

2. 4–5 yosh: Bu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqat paydo bo'lgan bo'ladi, e'tibor qaratish qobiliyati rivojlana boshlaydi.

3. 5–6 yosh: Bu yoshdagi bolalarda diqqat hajmi ortadi, o'zini sho'xliklarini nazorat qila olishga harakat qiladilar, topshiriqlarni ohirigacha davom ettirib yakunlash qobiliyati shakllana boshlaydi.

4. 6–7 yosh: Bu yosh maktabga tayyorgarlik bosqichi hisoblanib bolalarda diqqat barqarorligi kuchayadi, nazorat va o‘zini boshqarish elementlari vujudga keladi.

Diqqatni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarga biologik, psixologik va ijtimoiy omillar kiradi.

Diqqatni rivojlantiruvchi biologik omillar — bu bolaning jismoniy va asabiy-fiziologik holati bilan bog‘liq bo‘lgan ichki omillardir. Bunda bolalarning jismoniy sog‘lomligi, asab tizimi yaxshi rivojlanganligi, ularda diqqat jarayonini shakllanishi, barqarorligi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu yoshdagi bolalar uchun uyqu yetarliligi muhim hisoblanadi. Uyqu yetishmovchiligi diqqatning barqarorligini buzadi, va tez charchashga olib keladi. Uyqusi yaxshi bo‘lib, to‘liq dam olgan bolalar faol va e’tiborliroq bo‘ladilar.

Ijtimoiy omillar – oilaviy muhit, tarbiya, tarbiyachining yondashuvi. Oila bu bolada diqqatning shakllanishi va barqaror bo‘lishiga asosiy ta’sir ko‘rsatuvchi birinchi ijtimoiy muhitdir. Oilada quyidagi jihatlar muhim: Avvalo ota-onaning mehribon, sabrli va rag‘batlantiruvchi munosabati bu diqqatni rivojlantirishga yordam beradi. Uyda tartibli, intizomli bo‘lishi borasida tarbiya berish va unga shunday tinch, bolaga qulay muhit yaratib berilishi e’tiborning jamlanishini osonlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasasidagi sharoit: Tarbiyachining individual yondashuvi, samimiy xushmuomala bo‘lishligi, bolaga nisbatan ijobiy munosabati tufayli bolada hurmat kabi his tuyg‘ulari orqali diqqat va e’tibor kuchayadi.

Jamoaviy mashg‘ulotlar bolada ijtimoiy motivatsiyani kuchaytiradi va ixtiyoriy diqqatni shakllantirishga yordam beradi.

Psixologik omillar – Bu omillar bolaning ichki psixik holati, shaxsiy xususiyatlari va emotsional rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, diqqat jarayonining samarali shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Psixologik omillarga emotsional holat, qiziqishlar, motivatsiya, bolaning shaxsiy xususiyatlari, stress va psixologik bosim kabilarni kiritish mumkin.

Psixologik - fiziologik jihatdan bolalarning temperamenti ularni diqqatini boshqarishiga o‘z tasirini ko‘rsatadi.

Bola uchun faoliyatning qiziqarli va mazmunli bo‘lishi diqqatning shakllanishi uchun asosiy omildir.

Qiziqish orqali diqqat ixtiyorsizdan ixtiyoriyga o‘tadi.

Rag‘batlantirilishga bo‘lgan munosabati va maqsadga erishish istagi bolaning faoliyatga diqqatini jamlashini kuchaytiradi.

Ijobiy emotsiyalar (xursandchilik, quvonch) diqqatning barqarorligini oshiradi.

Salbiy emotsiyalar (qo‘rquv, xavotir, charchoq) esa e’tiborni susayishiga olib keladi.

Sokin, qulay va emotsional jihatdan barqaror muhitda bola diqqat e’tiborini samaraliroq boshqaradi.

O‘yin faoliyati – bolalarning asosiy faoliyati bo‘lib, diqqatni shakllantirishga va jamlashda samaraliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Diqqatni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyati haqida bir qancha olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Masalan: **Rus psixologi A.N. Leontyev** bolalarning faoliyatda qatnashishlari diqqatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini qayd etgan. Unga ko‘ra, diqqat inson faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, bolaning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Yana bir **rus psixologi D.B. Elkonin** esa maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining markazida rolli o‘yinlar turishini ta’kidlab, aynan shu o‘yinlar orqali bolalarda diqqatning ixtiyoriy shakllari rivojlanishini ko‘rsatgan. U bolalar o‘zlariga yuklatilgan roldagi vazifalarni bajarish orqali diqqatini boshqarishga o‘rganadi, deb hisoblaydi.

Shular qatorida O‘zbekistonlik olim, psixolog X. Yo‘ldoshev ham o‘z fikrini aytib o‘tgan.

**O‘zbek psixologi X. Yo‘ldoshev** maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning diqqatini shakllantirishda didaktik o‘yinlar, vizual materiallar va bolalarning qiziqishlariga mos topshiriqlar muhim rol o‘ynashini aytib o‘tgan. Uning fikricha, diqqatni shakllantirish bolaning keyingi bilim olish jarayoni uchun tayyorgarlik bosqichidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, kelajak poydevori hisoblangan yosh avloddan kattadan katta natijalar olish uchun ularni rivojlanib kamol topishlariga kerakli sharoit va imkoniyatlar yaratib berish lozim. Shaxsning komil inson bo‘lib rivojlanishida, samarador va kerakli kadr bo‘lib yetishishida, diqqat e’tiborini jamlay olib mukammal o‘rgana olishi muhim ahamiyatga ega. Diqqatini shakllantirishni esa maktabgacha bo‘lgan jarayondan boshlash kerak. Diqqatni shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni barchasini nazorat qilib borilsa albatta mas’uliyatli, jamiyatiga foydali shaxs yetishib chiqadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmatova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi.” – Toshkent, 2020
2. Zokirova N. “Maktabgacha ta’limda diqqatni rivojlantirish usullari.” – Ilmiy maqola, 2022
3. Vygotskiy L.S. “Psixologik rivojlanish nazariyasi.” – Moskva, 1991
4. Davronova M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni rivojlantirish yo‘llari.” – Ilmiy maqola, 2022.
5. Bozorova D., Qodirova Z. “Maktabgacha ta’lim metodikasi.” – Toshkent, 2019
6. G‘aniyev E., Karimova V. Psixologiya. — Toshkent: «Sharq», 2004
7. Abdullaeva Z.M. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. — Toshkent: Ilm Ziyos, 2020
8. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. — М.: Изд-во МГУ, 1981

- 
9. Эльконин Д.Б. Психология игры. — М.: Педагогика, 1978
10. Юлдашев Х. Bolaning individual rivojlanishi va uni psixologik o‘rganish. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003

